

Date: 29th March-2026

**TEATR PEDAGOGIKASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA PEDAGOGIK
ASPEKTD A YONDASHUV**

Komilova Xurshida Toxirovna

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti “Boshlang’ich
ta’lim” kafedrası, P.f.b.f.d professor

Ashirmamatova Madina Murodiljon qizi

ADPI. Pedagogika fakulteti boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada teatr pedagogikasining tarixiy ildizlari, uning shakllanish bosqichlari va zamonaviy ta’lim tizimidagi pedagogik-psixologik jihatları atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda teatr san’ati elementlarining o’quvchilar intellektual salohiyatini oshirish, emotsional intellektini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvchanligini ta’minlashdagi roli ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, jadidchilik davri teatr pedagogikasi hamda bugungi kunning innovatsion texnologiyalari o’rtasidagi vorislik aloqalari yoritilgan. Maqola teatr pedagogikasini umumta’lim va oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo’yicha uslubiy tavsiyalarni o’z ichiga oladi.

Kalit so’zlar: teatr pedagogikasi, didaktika, antik teatr, jadidchilik, ijodkorlik, san’at, qobiliyat, kommunikativlik, kompetensiya, shaxs ijtimoiylashuvi.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the historical roots of theater pedagogy, the stages of its formation, and the pedagogical and psychological aspects of the modern education system. The study scientifically substantiates the role of elements of theater art in increasing the intellectual potential of students, developing emotional intelligence, and ensuring social adaptability. It also highlights the continuity between theater pedagogy of the jadid period and today's innovative technologies. The article contains methodological recommendations for integrating theater pedagogy into the process of general education and higher education.

Keywords: theater pedagogy, didactics, ancient theater, Jadidism, creativity, art, ability, communicativeness, competence, socialization of the individual.

Аннотация: В данной статье представлен всесторонний анализ исторических корней театральной педагогики, этапов её формирования, а также педагогических и психологических аспектов современной системы образования. Исследование научно обосновывает роль элементов театрального искусства в повышении интеллектуального потенциала учащихся, развитии эмоционального интеллекта и обеспечении социальной адаптивности. Также подчеркивается преемственность между театральной педагогией периода Джадидов и современными инновационными технологиями. Статья содержит методические рекомендации по интеграции театральной педагогики в процесс общего и высшего образования.

Ключевые слова: театральная педагогика, дидактика, античный театр, джадидизм, творчество, искусство, способности, коммуникабелью. компетентность, социализация личности.



Date: 29th March-2026

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-600-sonli Farmoni o‘zbek milliy san’atida teatr faoliyatini yanada rivojlantirish, tizimda qator islohotlar va yangiliklar uchun muhim qonuniy asos bo‘ldi. Shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va ruhan tarbiyalashda ham amaliyotga keng tadbir etila boshlandi⁷.

Mamlakatimizda ta’im sifatini oshirishga bo‘lgan e’tibor yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, umumta’lim maktablari uchun ta’lim standartlari talablariga muvofiq yuqori samarali multimedia vositalari hamda o‘quv adabiyotlari va qo‘llanmalarining kompyuter elektron turlarini yaratishning yo‘lga qo‘yilganligi ushbu soha rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol toptirish jamiyatimizning ustuvor vazifalaridandir. Bu borada kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda teatr san’atining o‘rni beqiyos.

Teatr pedagogikasi — bu teatr san’ati vositalari orqali o‘quvchilarni tarbiyalash, ularda estetik did, emotsional madaniyat va ijodkorlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — har bir o‘quvchida yashirin iste’dod va ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishdir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan tub ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar asosida jadidchilik harakati o‘ziga xos o‘rin tutadi. Mustamlakachilik siyosati natijasida joylardagi ijtimoiy-ma’rifiy hayotda yuzaga kelgan tanglik, ilm-fanning rivojlanishidan ortda qolishi, xalqning savodsizlik va jaholat botqog‘iga botgani jadid ziyolilarini chuqur tashvishga soldi. Ular xalqni uyg‘otish, bilim va ma’rifatga yetaklash, yangi zamon talablari asosida zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirishni o‘z oldilariga asosiy vazifa qilib qo‘ydilar. Jadid maktablari aynan shu zaruriyat va tarixiy sharoitning mahsuli bo‘lib, eski maktab-madrasalar tizimidan farqli ravishda, dunyoviy bilimlarni, yangi pedagogik uslublarni va zamonaviy fan yutuqlarini ta’lim jarayoniga olib kirdi. Ana shu islohotlar doirasida teatr san’ati ham ta’lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida kiritildi. Jadid ziyolilari teatrni bolalarning tafakkurini kengaytirish, axloqiy tarbiya berish, vatanparvarlik ruhini singdirish hamda jamiyatdagi muammolarni badiiy ifoda orqali yoritish vositasi deb bilganlar. Teatr san’ati orqali ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni xalq ongiga singdirish, yosh avlodni o‘z davrining ilg‘or bilimlari va qadriyatlar bilan qurollantirish mumkinligi jadidlarning amaliy faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlandi. Xususan, maktab o‘quvchilari uchun sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash, axloqiy saboqlar berish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faoliyatga tayyorlash ishlari amalga oshirildi. Teatr vositasida ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi nafaqat bolalarning o‘zlashtirish darajasiga, balki jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirishga, ma’rifatparvarlik ruhining mustahkamlanishiga ham xizmat qildi. Jadidlar yaratgan teatr asarlari — milliy uyg‘onish va madaniy o‘zgarishlar tarixining bebaho

⁷ Mirziyoyev Sh. “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-600 sonli Farmoni. T. 2020.



Date: 29th March-2026

namunasi sifatida, zamonaviy ta'lim metodologiyasida ham muhim o'rin tutadi. Bugungi ta'lim- tarbiya tizimida interfaol, sahnaviy metodlar qo'llanilayotgani o'z ildizini aynan jadid maktablarining tajribasidan olgani e'tiborga molikdir.

Jadidchilik harakati va unda teatr vositasida ta'lim-tarbiya masalalarining o'rganilishi masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Bu yo'nalishdagi adabiyotlar tahlili jadid maktablarining maqsadi, teatr san'atining ahamiyati va uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli kabi jihatlarni anglash imkonini beradi.

1. Jadidchilik va maorif haqida umumiy manbalardan ma'lumot oladigan bo'lsak, M.Ahmedovning "O'zbek jadidchiligi tarixi" asarida jadid maktablarining paydo bo'lishi, ularda yangi ta'lim metodlari va yangi fanlar joriy etilishi batafsil tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, jadid maktablarida faqat nazariy bilim emas, balki hayotga mos tajribaviy ko'nikmalar ham shakllantirilgan va bu jarayonda teatr san'ati muhim o'rin tutgan.

2. Teatr san'atini jadid maktablarida tatbiq etilganiga misol tariqasida B.Mirvaliyevning "O'zbek dramaturgiyasi va jadidlar" asarini olishimiz mumkin. Ushbu asar jadidlar tomonidan yaratilgan teatr asarlari tahliliga bag'ishlangan. Muallif teatr vositasida jamiyatdagi kamchiliklar fosh qilingani, xalqni uyg'otish va ilmiy fikrga chorlashdek vazifalar bajarilganini ko'rsatib o'tadi. Jumladan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yaxshi oila, yomon oila" asari orqali yoshlarga oilaviy qadriyatlar va jamiyatdagi mas'uliyatli faollik ruhida tarbiya berish maqsad qilingan.

I.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida esa umumiy ma'naviy-axloqiy rivojlanishda madaniyat va san'at, jumladan, teatrning o'rni alohida ta'kidlangan. Unda ta'lim-tarbiyada zamonaviy fikrlash va interfaol metodlar, jumladan, sahnalashtirishning ahamiyati qayd etilgan.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari ham jadidchilik ruhini aks ettiradi. Unda ta'lim, ma'rifat va jamiyat islohotlarining ahamiyati badiiy tasvirlangan bo'lib, jadid maktablarining ruhiy asoslarini anglashda muhim manba hisoblanadi.

Date: 29th March-2026

3. Jadidlar va bolalar teatrining shakllanishida Mahmudxo‘ja Behbudiyning faoliyati jadid maktablarida teatr vositasida ta‘lim va tarbiyani shakllantirishning yorqin namunasi sifatida o‘rganiladi. Uning “Padarkush” dramasi oilaviy munosabatlar, jaholat va maorifsizlikning yomon oqibatlarini haqida bolalar va kattalar uchun faxriy dars vazifasini bajargan. Bu pyesa maktablarda sahnalashtirilib, ta‘limning ta‘sirchanligini oshirgan.

4. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan, F. Abdurahmonovning ta‘limda interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha ishlarida, sahnalashtirish metodi ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish vositasi sifatida tavsiya etiladi. Bu qarash jadid maktablarining tajribasi bilan mutanosibdir.

Jadid maktablarida teatr san‘atining ta‘lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi nafaqat pedagogik innovatsiya sifatida, balki milliy uyg‘onish va ma‘naviy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Jadidlar teatr vositasida o‘quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularning axloqiy, falsafiy va ijtimoiy ongini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratdilar. Ular bolalarning qalbi va tafakkuriga ta‘sir etishning eng ta‘sirchan vositasi sifatida teatrni samarali qo‘llay oldilar.

Teatr orqali o‘quvchilar: mustaqil fikrlash, faol fuqarolik o‘rnini shakllantirish, g‘oyaviy barqarorlik va milliy g‘urur hislarini tarbiyalashga imkon yaratadi. Teatr san‘atiga tarbiyaning ilg‘or vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo‘l ochadi. “Insonni kashf etish esa shaxsni kashf etishdir. Aynan badiiy ijodiy faoliyatda bola o‘zini to‘laroq namoyon eta oladi”- deya ta‘riflaydi L.M. Batkin.⁸

XXI asrning tez o‘zgarib borayotgan manzarasida talabalarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish ta‘limning hal qiluvchi maqsadiga aylandi. Kasbiy kompetensiya shaxslarga o‘zlarining kasbiy sohalarida vazifalarni samarali bajarishga imkon beradigan ko‘nikmalar, bilimlar va xatti-harakatlarning kombinatsiyasi sifatida aniqlangan kasbiy muvaffaqiyat va shaxsiy o‘sish uchun zarurdir. An’anaviy ta‘lim usullari ko‘pincha professional kompetentsiyaning ko‘p qirrali xususiyatini hal qilishda yetishmaydi, bu nafaqat texnik tajriba, balki muloqot, jamoaviy ish, muammolarni hal qilish va hissiy aql kabi muhim ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Teatr pedagogikasi, teatr texnikasi va faoliyatidan foydalanadigan innovatsion ta‘lim yondashuvi bu bo‘shliqni bartaraf etish qobiliyati bilan e‘tirof etilgan. An’anaviy o‘qitish usullaridan farqli o‘laroq, teatr pedagogikasi tajribaviy o‘rganish, ijodkorlik va ijtimoiy o‘zaro ta‘sirga urg‘u berib, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish uchun yaxlit asos yaratadi.

⁸ L. Batkin. “Badiiy ijod va psixologiya”. 1971.



Date: 29th March-2026

Teatrshunos Sh.Minovarov fikriga ko'ra, "Teatr san'ati har xil yoshdagi, xarakterdagi bolalarning fe'liga ta'sir etadigan, ularning qiziqishini o'stiradigan tarbiya maktabidir. Buning uchun bolalar teatri har xil spektaklni sahnalashtirishda ularning psixologiyasini bilishdan tashqari pedagogika, ruhshunoslik, bolalar adabiyoti va adabiyotshunosligidan ma'lumotga ega bo'lishi lozim".⁹

Rus pedagog olimlari Bogomolova N.B. "Teatr pedagogikasi va tarbiya jarayoni" nomli asarida teatr pedagogikasining asosiy tamoyillari, uning ta'lim jarayonidagi qo'llanilishi va pedagogik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi.¹⁰ Stanislavskiy K.S. "San'atdagi hayotim" nomli kitobida tizimining asosiy g'oyalari teatr pedagogikasi asoslarini shakllantiradi. Ushbu manba orqali o'qituvchi aktyorlik san'ati va ijodiy faoliyatni pedagogik jarayonga integratsiya qilish usullarini o'rganishi mumkin deb asoslaydi.¹¹ Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilan Shayxzoda M. "O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi: muammolar va yechimlar" maqolasida kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish uchun teatr texnikalarining qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini teatr san'ati orqali estetik tarbiyalashda, eng avvalo, sinf o'qituvchisining teatr san'ati haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lmog'i lozim. Ming afsuski aksariyat hollarda bu jarayonning teskarisiga duchor bo'lamiz. Bolalarni teatr san'ati orqali estetik tarbiyalashda xorij tajribasi tahlil etilganda, bu boradagi ishlarning mazmuni va maqsadi anchayin yuqori samara berishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya maktablarida maxsus teatr pedagogi lavozimi mavjudligi ijobiy holatdir.

Teatrlashtirilgan tomoshalar (qo'g'irchoq teatrlar) dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan mavjud. Ular jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Shunday bo'lsa-da, qo'g'irchoq teatrining to'rt turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar; soyali qo'g'irchoqlar; ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar. Har bir teatr turidagi tomoshalarda sahna bezaklari, ulardagi xilma-xil ranglar va albatta, undagi qahramonlar bola tafakkurini shakllantiribgina qolmay, uning dunyo qarashini, go'zallikka intilishini, fikrlash doirasining kengayishiga yordam beradi.

Teatr pedagogi o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot mavzulari va tomosha repertuarlari dinamikasi o'quvchilar yoshiga va psixologiyasiga qarab oddiylikdan mantiqiylikka, mantiqiylikdan murakkablikka, murakkablikdan professionallikka qarab shakllantiriladi va tashkil etilar ekan. Shu nuqtai nazardan mazkur tajribani O'zbekiston maktablariga ham joriy etish lozim deb hisoblayman. Negaki, sinf rahbarining asosiy o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada tashkil etishi, teatr pedagogi esa, darsdan tashqari

⁹ Minovarov Sh. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri. Toshkent: 2000.

¹⁰ Bogomolova N. B. "Teatr pedagogikasi va tarbiya jarayoni".

¹¹ Stanislavskiy K. S. "San'atdagi hayotim".



Date: 29th March-2026

ma'naviy ishlarni yuqori darajada tashkil etsa o'quvchining ham aqliy ham ma'naviy-estetik tarbiyasi puxta shakllanar edi.

Teatr pedagogi o'z faoliyatini, albatta, milliy tajribalar bilan ham ohang olib borishi muhimdir. Bu borada o'quvchilar ongida yuksak axloqiy-estetik sifatlarning shakllanishida ularning ota-onalari va sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda faoliyat olib borish lozim. "Teatr pedagogi - ota-ona sinf - o'qituvchisi" hamkorligida sofdillik, xushmuomalalik, kamtarlik, o'zaro hurmat, bir so'z bilan aytganda, samimiy munosabat kabi hislatlar mavjud bo'lsa, bu ibratli axloqiy-estetik sifatlarga o'quvchilarga ijobiy ts'sir etadi.

Teatr pedagogikasining ta'limga integratsiyalashuvi keng qamrovli tadqiqotlar mavzusi bo'lib, uning bir qator kompetensiyalarni, jumladan, kasbiy mahoratni shakllantirishdagi samaradorligini ko'rsatib berdi. Ushbu adabiyot sharhi teatr pedagogikasining kasbiy kompetensiyaga ta'siri, uni ta'lim muassasalarida tatbiq etish va undan foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi nazariy asoslarga e'tibor qaratib, turli tadqiqotlar va ilmiy ishlardan olingan asosiy xulosalarni umumlashtiradi.

Bir qator tadqiqotlar teatr pedagogikasi talabalarning kasbiy malakasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Bolton va Neelands teatr pedagogikasi professional muhitda muhim bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Rolli va improvizatsiya mashg'ulotlarini o'tkazish orqali o'quvchilarda oyoqqa turib fikrlash, yangi vaziyatlarga moslashish, jamoalarda samarali ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Anderson va Donelan tomonidan olib borilgan tadqiqot teatr pedagogikasi orqali hissiy intellektning rivojlanishini ta'kidlaydi. Hissiy intellekt, jumladan, o'z-o'zini anglash, empatiya va shaxslararo munosabatlar professional muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Teatr faoliyatining immersiv tabiati talabalarga turli nuqtai nazarlarni o'rganish va tushunish imkonini beradi, ularning ish joyidagi murakkab ijtimoiy dinamikani boshqarish qobiliyatini oshiradi.

Teatr pedagogikasining tatbiq etilishi ta'lim sharoitlari bo'yicha turlicha bo'lib, muayyan o'quv maqsadlari va talaba ehtiyojlariga mos ravishda moslashtiriladi. O'.Toole teatr pedagogikasining o'rta ta'limga integratsiyalashuvini muhokama qilib, uning qo'llab-quvvatlovchi va qiziqarli o'quv muhitini yaratishdagi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, teatr faoliyatida qatnashgan talabalar motivatsiya, o'ziga ishonch va ko'proq tegishlilik hissini namoyon qiladi.

Teatr pedagogikasining nazariy asoslari adabiyotlarda yaxshi yoritilgan. Kolbning eksperimental o'rganish nazariyasi teatr pedagogikasining eksperimental tabiatini tushunish uchun mustahkam asos yaratadi. Kolbning fikriga ko'ra, o'rganish - bu tajribani o'zgartirish orqali bilim yaratiladigan jarayon. Teatr faoliyati ushbu o'zgaruvchan o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan aniq tajribalarni taklif qiladi.

Vygotskiyning "Ijtimoiy-madaniy nazariya"si ham teatr pedagogikasini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Vygotskiy ta'limda ijtimoiy o'zaro ta'sir va proksimal rivojlanish zonasi muhimligini ta'kidladi. Teatr pedagogikasi ijtimoiy o'zaro ta'sir va



Date: 29th March-2026

hamkorlikda o'rganish uchun imkoniyatlar yaratadi, bu o'quvchilarga rahbarlik ostida ishtirok etish va tengdoshlarini qo'llab-quvvatlash jarayonini keltirib chiqaradi.

Gardnerning "Ko'p aql-zakovat nazariyasi" o'quvchilar o'rganishning turli usullarini tan olish orqali teatr pedagogikasidan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Teatr faoliyati turli xil intellektlarni, jumladan, jismoniy-kinestetik, shaxslararo va lingvistik intellektlarni qamrab oladi, bu esa talabalarning keng doirasi uchun o'rganishni yanada inklyuziv va samarali qiladi.

Teatr mashg'ulotlari jarayonida bolalar o'z his-tuyg'ularini obraz orqali ifodalaydi, sahnalashtirish jarayoni esa ularning tafakkurini, nutqini, diqqatini, tasavvurini va ijtimoiy faoliyatini rivojlantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida teatr pedagogikasi so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida teatr to'garaklari, sahna madaniyati mashg'ulotlari tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, yangi imkoniyatlar ham ochilmoqda: raqamli texnologiyalar asosida teatr ta'limi, interfaol metodlardan foydalanish, yoshlar teatr studiyalarining rivojlanishi va ta'limda madaniy integratsiya jarayonlarining kengayishi. Ijodiy tafakkur – bu yangicha fikrlash, nostandart yondashuv va o'ziga xos g'oyalarni yaratish qobiliyatidir.

Teatr faoliyati orqali o'quvchilar o'z hayotiy pozitsiyasini mustahkamlaydi, insoniy qadriyatlarni chuqur his etadi va o'z fikrini san'at orqali ifoda etishni o'rganadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, teatr pedagogikasi — bu teatr san'ati vositalari orqali o'quvchilarni tarbiyalash, ularda estetik did, emotsional madaniyat va ijodkorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — har bir o'quvchida yashirin iste'dod va ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarishdir.

Teatr pedagogikasi ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. U nafaqat o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini ochadi, balki ularni ma'naviy barkamollikka, jamoada ishlashga va hayotga ijobiy qarash bilan yondashishga o'rgatadi. Shuningdek talaba yoshlarni ijodiy qobiliyatlari, tafakkur va tasavvur bazalarini ham boyitib boradi. Yoshlarni aqlan yetuk bo'lishida teatr pedagogikasining barcha soha va metodlari ahamiyatlidir. Teatr pedagogikasi voqelikni tafakkurda chuqurroq angalashga yordam beradi. Shuning uchun teatr pedagogikasini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, bu sohada metodik bazani boyitish va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-600 sonli Farmoni. T., 2020.
2. L. M. Batkin. "Badiiy ijod va psixologiya". 1971.
3. Minovarov Sh. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri, T. 2000-yil
4. Bogomolova N.B. "Teatr pedagogikasi va tarbiya jarayoni".
5. Stanislavskiy K.S. "San'atdagi hayotim".



Date: 29th March-2026

6. Ahmedov M. O‘zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.240b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.
8. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1991. – 64 b.
9. Mirvaliyev B. O‘zbek dramaturgiyasi va jadidlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014. – 216 b.
10. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2010. – 368 b.
11. Abdurahmonov F. Interaktiv ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2007. 212 b.

